



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTONDA ALIFBO, IMLO MASALALARI

Mirzohid TURSUNOV *

Annotatsiya

XX asrning birinchi yarmi O‘zbekiston tarixida ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotda katta o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Ayniqsa, til siyosati va yozuv tizimi sohasida amalga oshirilgan islohotlar o‘zbek xalqining madaniy taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. Bu davrda o‘zbek adabiy tilining shakllanishi, yozuv tizimining isloh qilinishi va imlo qoidalarining standartlashtirilishi milliy o‘zlikni anglash va ilma’rifatning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Jadidchilik harakati bilan boshlangan bu islohotlar natijasida arab yozuvidan lotin yozuviga o‘tish jarayoni boshlandi, keyinchalik esa kirill yozuvi joriy etildi. Har bir bosqich o‘zining ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, davr mafkurasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan edi. Ushbu ishda XX asrning dastlabki yillarida O‘zbekistonda alifbo va imlo masalalarining qanday kechganini, ularning jamiyat hayotiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: til, alifbo, imlo, araf alifbosi, kirill alifbosi, lotin alifbosi takomili, til siyosati, imlo masalalari, tilni soddalashtirish.

Alphabetic And Spelling Issues in Uzbekistan in the First Half of The 20th Century

Abstract

The first half of the 20th century was a period of significant changes in the social, cultural, and political life of Uzbekistan. In particular, the reforms implemented in the field of language policy and writing systems left a profound impact on the cultural development of the Uzbek people. During this period, the formation of the Uzbek literary language, the reform of the writing system, and the standardization of spelling rules played a crucial role in fostering national identity and advancing education. These reforms, which began with the Jadid movement, initiated the transition from the Arabic script to the Latin script, and later led to the introduction of the Cyrillic script. Each stage had its own advantages and disadvantages, and was closely intertwined with the ideology of the time. In this work, we will examine how the issues of alphabet and orthography unfolded in Uzbekistan during the early years of the 20th century, and their impact on society.

Keywords: language, alphabet, orthography, arabic script, cyrillic script, development of latin script, language policy, spelling issues, language simplification.

* O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi, tursunov.mirzohid1995@gmail.com

XX asrning boshlarida boshqa turkiy xalqlar kabi O‘zbekistonda ham alifboni isloh qilish, imloni yengillashtirish masalasi kun tartibiga chiqdi. Qardosh turkiy tillardagi muammolar o‘zbek tilida ham mavjud edi, ya’ni arab tilining butunlay boshqa til oilasiga mansubligi ham mazkur alifbo o‘zbek tilining ichki qonuniyatlarini to‘la ochib bera olmas edi. Jadidlar arab yozuvidan foydalanishda duch kelinayotgan qiyinchiliklarni – fonetik moslik yo‘qligi, harflarning kamligi, imlo noturg‘unligi kabi muammolarni tanqid qildilar. Ular arab yozuvidagi imlo qoidalarini soddalashtirish va uni o‘zbek tili tovush tizimiga moslashtirish zarurligini ta’kidlashdi. Xususan, Ashurali Zohiriy o‘zining 1916-yilda nashr ettirgan “Imlo” darsligida bu haqda quyidagicha fikrlarni bayon qiladi: “Bizning hozirg‘i (eski) imlamizda qaida degan narsa asla riya etilmaganlig‘idan har kim o‘zicha qanday yozmaqni xahlasa, o‘shanday yaza berg‘an, bu adabiyatimizning kengayishiga sad bo‘lib, yashlarimizning qiynalishidan boshqa ajnabiy millatlarning qashida tilimizning masxara qildirib, madaniy tillarga baha qo‘yg‘anda, qimmatini hech bo‘lishiga sabab bo‘ldik. Shunga binaan bul “Imla” risalasini yazdim. Eng zarur qaidalarni darj etdim... “haye rasmiya”ni imlamizg‘a kirgizdim” (Tog‘ayev, 2006, 35–36-b.).

Jadid tilshunosi Fitrat arab yozuvini isloh qilish sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi:

1. Arab yozuvi o‘zbek tilidagi unli tovushlarni yozuvda ifodalash uchun imkoniyati cheklanganligi.
2. Arab tilida cho‘ziq va qisqaligi bilan farqlanuvchi atigi uchta unli fonema bor: a, i, u. cho‘ziq unlilar yozuvda ifodalanadi, qisqa unlilar ifodalanmaydi, ular belgilar bilan beriladi, bu esa savod chiqarishda qiyinchilik tug‘diradi.
3. Ayrim unli va undoshlar shaklining birxilligi.
4. O‘zbek tili uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan unlilarning qattiq-yumshoqlik, keng-torlik darajasi arab alifbosida berishning imkoniyati yo‘qligi.
5. Ayrim undoshlarning yozuvda ikki xil (t, h), uch xil (z) belgi-shakl bilan ifodalanishi.
6. Arab alifbosidagi harflarning to‘rt shaklliligi.
7. Arab alifbosi ko‘p undoshli va kam unlili somt tillariga xosligi (Saidov, 2001, 47-b.).

Arab alifbosi asosidagi yozuv tizimimizda bu kabi nuqsonlarning mavjudligi nafaqat o‘zbek xalqining, balki qo‘shni turkiy xalqlarning ham savod chiqarishi uchun eng katta to‘siqlardan biri edi. Shu sababli boshqa turkiy xalqlar ham alifbo va imlo islohoti o‘tkazishni maqsad qilgan edilar.

Tilshunos olim H.Jamolxonov ham arab tili asosidagi yozuv tizimi va imlo haqida quyidagi salbiy jihatlarni sanab o‘tadi: “1) eski o‘zbek tilidagi 8–9, yangi o‘zbek tilidagi 6–7 unli fonema faqat 3 ta harf — “alif”, “vov”, “yo” bilan

ifodalangan; 2) ayrim harflar polifonemali grafema tarzida qo'llangan: "vov" harfi "v" undoshini va "u", "o" unlilarini, "yo" harfi ham uchta fonemani — "i", "e" unlilarini va "y" undoshini ifodalagan; 3) "t" undoshi uchun ikki harf — "te", "to"; "s" undoshi uchun uchta harf — "se", "sin", "sod"; "z" undoshi uchun to'rtta harf — "zol", "ze", "zod", "zo" qo'llangan; 4) har bir harfning to'rt shakli — so'z boshida, o'rtasida, oxirida yoki yolg'iz qo'llaniladigan allograflari bo'lgan. Bunday holat maorif — ta'lim ishlarida va yozuv amaliyotida qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan: ravon o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga xalaqit bergan, matbaa — bosmaxona ishlarini murakkablashtirgan" (Jamolxonov, Umarov, 2019, 11-b.).

Eski arab alifbosida yagona imlo tizimining yo'qligi, o'zbekcha so'zlashuv tovushlarining yo'qligi, ayniqsa, unli tovushlarning harflar soni va ularning ifodalanishidagi nomutanosibliklar, arab alifbosida harflarning ko'pligi va murakkabligi talabga javob bermas edi. Shuning uchun ham taraqqiyotning dastlabki davrlaridanoq arab alifbosini isloh qilishga urinish bo'lgan. XIX asr oxirida boshlangan Ufa va Qozon tatarlarida alifbo va imloni isloh qilish harakati 1917-yildagi inqilobiy o'zgarishlardan so'ng Rossiyaga tobe bo'lgan turkiy xalqlar orasida yanada kuchaydi. Xususan, RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 18-oktabrdagi RSFSR xalqlarining eski yozuvini isloh qilish to'g'risidagi qarori buning uchun keng imkoniyatlar yaratdi (Ibrohimov, 1970, 48-bet).

Jadidlar faoliyati natijasida imlo va yozuvga yangicha yondashuv shakllana boshladi, bu esa keyinchalik alifbo islohotlari uchun zamin yaratdi. Biroq, arab yozuvi baribir o'zbek tilining barcha tovushlarini to'liq ifodalay olmagan sababli, yangi alifboga ehtiyoj tobora kuchaya bordi. Xususan, Sho'rolar hukumati ham o'zining dastlabki davridan boshlab savodsizlikni tugatish ishlariga katta e'tibor bilan qaradi. 1919-yil 26-dekabrda savodsizlikni tugatish to'g'risida dekret chiqardi. Shuningdek, TASSRda alifbo va imlo masalalarini tezroq hal qilish vazifalari belgilandi. Shundan so'ng, rasmiy ravishda arab alifbosini isloh qilish boshlandi.

Alifbo va imlo masalasi XX asrning boshlariga kelib jiddiy tarzda kun tartibiga qo'yilgan. 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan til-imlo anjumanida milliy alifbo va imlo qoidalari ilk marta maxsus ko'rib chiqilgan. 1923-yilda Buxoroda o'tkazilgan til-imlo anjumanida esa birinchi marta o'zbek tilining imlo qoidalari qabul qilingan hamda Maorif komissarligi tomonidan rasman tasdiqlangan. Jadid maktablarida an'anaviy imloga nisbatan o'zbek tili fonetikasi asosida yozish targ'ib qilindi. Arab harflarining tilda mavjud tovushlarga mos kelmasligi sababli, qo'shimcha belgilar kiritish taklif qilindi (Azimov, 2024, 69-b.). Imlo birligi bo'lmagan uchun adabiy matnlar turlicha yozila boshladi, ularni o'qishda ham turli muammolar kelib chiqa boshladi.

1921-yilda Toshkentda Birinchi o'lka o'zbek tili va imlosi qurultoyi bo'lib o'tadi. Mazkur qurultoy vakillari alifbo masalasida 2 guruhga bo'lingan edi: arab

alifbosini isloh qiluvchilar va lotin alifbosi asosida yangi alifbo tuzish tarafdorlari (Azimov, 2024, 60-b.). Shu bilan birga, alifboni isloh qilinishiga qarshi kuchlar ham ko‘p edi. Ikkinchidan, jadidlar orasida bunday islohot turkiylar birligiga, islom birligiga qarshi bo‘ladi degan qarashdagilar ham bor edi.

Ma’lumki, arab harflari yozuvda to‘rt xil shaklda (alohida, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida) ega. Jadidlar alifbo islohoti barobarida, arab harflarining shakllarini ham soddalashtirishga harakat qilganlar. Ular milliy alifbo xuddi g‘arb alifbolari kabi bir shaklga ega bo‘lgan harflardan iborat bo‘lishini orzu qilganlar, bu esa nashriyot-matbaa ishlarida ham qulaylik tug‘dirishini to‘g‘ri anglab yetganlar va shu maqsadga erishish uchun amaliy ishlarni amalga oshirganlar. 1920-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan o‘qituvchilarning qurultoyida harflarning to‘rt shakldan ikki shaklga tushirish haqida qaror qabul qilingan edi. Fitrat shu masalaga to‘xtalib, mazkur qaror asosida harflar soni 150 dan 50 taga tushganini, soddalik sari dadil qadam qo‘yilganini olqishlaydi (Azimov, 2024, 55–56-b.). Harflar sonini yanada qisqartirish bo‘yicha fikr bildirib, faqat bosh harflarni qoldirish taklifini kiritadi: “Yangi imlachilar sizlarga hazir taklip qilalar harpning bir shakldan bo‘lmag‘ini ayrim harpni ham tashlab butun so‘zlarni bosh harp bilan yazayliq deyalar. Buni qavul etsangiz, harplar bilan cho‘zg‘ilarimiz sani 29 ga tushib qalur. Bu esa matbaa va bashqa to‘g‘rilarga paydali bo‘luvi belgilidir” (Qurultoy qarori, 1922, 16-bet).

1921-yilning 1–5-yanvar kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Birinchii o‘lka o‘zbek tili va imlosi” qurultoyida lotin alifbosi loyihasi Botu tomonidan ko‘tarilgan edi. Mazkur qurultoyda harf va imlo masalasi yuzasidan ma’ruza qilgan Botu arab yozuvi isloh qilingani bilan o‘zbek tilining ichki xususiyatlarini to‘la ochib bera olmasligini, unlilar uchun qaysi bir belgilar orttirilgani, harflarning osti va ustidagi nuqtalar kishini har vaqt adashtirib qiyin ahvolga solib qo‘yishini aytib, butunlay arab harflarini tashlab, ko‘p millatlar tomonidan qabul qilinayotgan lotin yozuvini tilimizdagi tovushlarga muvofiq bir holga keltirib qabul qilish taklifini aytadi (Yo‘ldoshev, To‘xtaboyeva, 2024, 285-bet).

Ayni alifbo va imlo masalasi boshqa turkiy xalqlar, xususan, qozoq, qirg‘iz, turkmanlarda ham asosiy muammo edi. Mazkur qardosh xalqlar ham arab alifbosini isloh qilish fikridan qaytib, butun diqqatlarini lotin alifbosiga o‘tishga qaratadi. Chunki yozuv va o‘qish jarayonidagi muammolar ularda ham mavjud edi. Jadidlarimiz tomonidan arab yozuvining kamchiliklari OAV orqali maqola shaklida e’lon qilinib, xalqni yangi yozuv tizimiga o‘tishga unday boshladilar. Xususan, Otajon Hoshim “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1921-yil 11-yanvar sonida e’lon qilgan “Tashkent kanfirinsiyasida imla masalasi” maqolasida arab yozuvining vaqtinchalik ekanini, vaqtlar o‘tib boshqa xalqlar kabi lotin yozuviga o‘tilishi haqida aytadi: “Bu imla xatni vaqtincha deyishga sabab shulki, iqtisadiy turmushimiz tuzalib ketib, basmasi taraqqiy etu bilan bizga ham butun Avrupa xalqlari tarafidan qabul

etilgan ham yazulari, ham basmasi o'ng'ay bo'lg'an latin harflarini qabul etishg'a to'g'ri kelur. O'z tilimziga to'g'rilab qabul etsak, yazuvimiz tartibga salinur, maturlarinur, yengillashur edi" (Jamolxonov, Umarov, 2019, 79-b.).

Yuqorida ta'kidlanganidek, lotin yozuviga o'tish masalasida turlicha qarashlar mavjud edi. 1925-yil 29–30-noyabrida Samarqandda bo'lib o'tgan til mutaxassislari va o'zbekshunoslar kengashida ham "Butun turk olamining ko'pchiligi tomonidan arab harflari asrlardan beri ishlatilib kelib, turklarning aksariyatining tarix va adabiyoti bilan bog'langanligini e'tiborga olib, biz turklar uchun arab harflarini oloshni muvofiq topamiz" degan qaror qabul qilinadi (Jamolxonov, Sapayev, 2007, 9-b.). Mazkur qarordan so'ng jadidlarimiz va jadid tilshunoslarimiz orasida yozuv va imloni soddalashtirishga harakat boshlanadi.

Biroq arab alifbosi o'zbeklarda 1921-yildan buyon uch marta isloh qilingan bo'lsa-da, ijtimoiy o'zgarishlar, jumladan, siyosiy ahvol, savodxonlikka talabning oshib borishi, maktab-maorif ishining rivojlanishi tufayli arab yozuvi zamon talablariga javob berolmasligi ma'lum bo'ldi. Shu bois 1926-yili Bokuda o'tkazilgan Birinchi turkologiya qurultoyi turkiy tilli respublikalar uchun lotin yozuviga asoslangan alifboga o'tish to'g'risida qaror qabul qildi. Albatta, bu amaliy islohotlardan Sovet hokimiyatining ko'zlagan maqsadlari bor edi. Nihoyat, 1929-yilda o'zbek xalqi ham turkiy xalqlar singari o'z tiliga ko'proq mos va qulay bo'lgan lotin yozuviga o'tdi. Bu davrda O'zbekistonda lotin yozuviga o'tish sovet hokimiyatining tazyiqi va majburiyati ostida amalga oshirilmadi. Respublikaning yetakchi ziyolilari, olimlari, madaniyat va davlat arboblari o'zbek yozuvini arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tkazishni millat taraqqiyoti va kelajagi uchun hayotiy zarurat deb bildilar.

Shuni ham aytish kerakki, lotin yozuviga o'tish jarayonlari siyosiy-mafkuraviy jihatdan ham talqin qilingan. Arab yozuvi eski zamonning sarqiti, bu yozuvda savod chiqarganlar boylar, mullalar, eshonlar ekanligi, ular sotsialistik tuzum qurayotgan o'zbek ishchi-dehqon manfaatlariga qarshi bo'lganligi, qolaversa, bu yozuv keng mehnatkash ommasiga xizmat qila olmasligi, shuning uchun uni zamonaviyroq yozuvga almashtirish zarurati tug'ilganligi aytila boshladi.

Dastlab arab yozuvini qo'llab-quvvatlagan Ashurali Zohiriy ham 1926-yilda Bokuda bo'lib o'tgan turkiy xalqlar qurultoyida O'zbekistondan vakil sifatida qatnashib kelgandan so'ng lotin yozuviga o'tishni ma'qullaydi. Farg'onada qurultoy natijalariga bag'ishlangan yig'ilishda qilgan ma'ruzasida yangi turk (lotin) alifbosining isloh qilingan arab alifbosiga qaraganda ta'lim jihatdan bo'lsin, texnika jihatdan bo'lsin ming marta qulayroq va yengilroq, osonroq ekanligini aytadi (Azimov, 2024, 83-b.).

Botu, shuningdek, alifboni o'zgartirish bilan hamma ish hal bo'lib qolmasligini ta'kidlaydi. "Asl masala shundan keyin boshlanishi" haqida so'z yuritadi: "Qilgan

ishlarimizga tanqid ko‘zi bilan qarab olishimiz va kamchilik, yanglishishlarimizni tuzatishimiz lozim. Ya’ni alifbening muvaffaqiyati bilan bizning ishimiz tamom bo‘lmaydi. Hozir xalqimizda muhim masala bo‘lib til va imlo masalasi turadi. Bu to‘g‘rilarida ko‘p yillardan beri gap, munozara bo‘lsa ham, tegishli holga muvaffaq bo‘lganlari yo‘q. Buning, yuz foiz bo‘lmasa ham, hal etilishiga intilishimiz zo‘r. Mehnatkashlarimizning savodini chiqarish ishi naqadar ahamiyatli bo‘lsa, til va imlo masalamizdagi chatoqliklarni hal qilish ham bundan oz ahamiyatli emasdir” (Botu, 2004, 123-b.).

Haqiqatan ham, alifbo, ya’ni harf almashtirish bilan imlo risoladagidek bo‘lmasa, muammo hal bo‘lmaydi. Tezlik bilan yangi alifbo asosida yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish zarur edi. Unlilar masalasi borasida ham hali munozaralar tugamaganligi bois imlo qoidalarini ishlab chiqishning imkoni ham yo‘q edi. O‘zbek tili imlosini standartlashtirish masalasida 1921-yil yanvar oyida bo‘lib o‘tgan “O‘lka o‘zbek tili va imlo qurultoyi”da Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriylar qatorida Botu ham so‘zga chiqadi va munozarali masalada o‘zining asosli fikrlarini tilga keltiradi. Botu o‘z ma’ruzasida bosh harflar imlosi, lotin alifbosining yutuq va kamchiliklari kabi masalalar haqida fikr yuritib bo‘lgach, mulohazalarini quyidagi to‘rt moddada umumlashtiradi:

1. Imlo islohada undosh va unli tovushlar masalasi alohida-alohida ko‘rib chiqilsin.
2. Undoshlar soni 23, unlilar soni 6 ta bo‘lsin.
3. Yozuv faqat bosh harflarda yozilsin.
4. Tilimizga kirib qolgan chet so‘zlar o‘z harflarimiz va talaffuzimizga mos tarzda yozilsin (Yo‘ldoshev, To‘xtaboyeva, 2024, 285-b.).

1921-yilning boshida Til va imlo qurultoyi bo‘ldi. Qurultoyda eski alifbo-imlo savod chiqarishga, maktab-maorif rivojiga, madaniy taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgani sababli rasmiy isloh etilib, “Chig‘atoy gurungi”ning imlo asoslari qabul qilindi.

Xullas, arab alifbosi 1921-yildan boshlab uch bor isloh qilinishiga qaramay, uni tuzatib, bu sohada yagona fikrga kelib bo‘lmadi. Shu sababli, turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar ham o‘z tillari uchun ancha sodda va ancha qulay bo‘lgan lotin alifbosiga o‘tdilar.

Til va yozuv masalasi bu davrda ijtimoiy-madaniy sohada muhim siyosiy ahamiyat kasb etayotgani sababli Munavvar qori va uning tarafdorlari hamda “Chig‘atoy gurungi” o‘rtasida alifbo-imlo, adabiy til sohasida jiddiy kurash kechgan. 1922-yil fevral oyida Toshkentda chaqirilgan O‘zbek madaniyati va xodimlarining o‘lka qurultoyi ham til-imlo masalasi tufayli ikki taraf guruh o‘rtasidagi bahs va janjallar bilan o‘tdi (Azimov, 2024, 89-b.). Ta’kidlash kerakki, bu yig‘inda kelgusida alifboni lotinlashtirish fikri ma’qullandi. Bu ishning amaliy tomonlari muhokama

qilindi. Turkiy dunyoda qo‘zg‘alayotgan lotinga o‘tish harakati, shuningdek, ziyolilar o‘rtasidagi noahillik sabab Buxoro anjumanidan so‘ng ham yozuvda boshboshdoqlik davom etdi.

Arab yozuvi ma‘lum darajada musulmon dunyosi, xususan, musulmon turkiylar birligiga yordam berar edi. Alifboni o‘zgartirish ularni ajratib tashlash uchun qo‘l kelardi. Shuning uchun ham ruslar turkiy xalqlarning arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tishlarini jon deb qo‘llab-quvvatladi va hatto ziyoda rag‘batlantirdi.


Jadidlar boshqa turkiy tillarda mavjud bo‘lgan singarmonizm qonuniyatining o‘zbek tilida ham mavjudligini, unilarning yo‘g‘on-ingichka variantga ega ekanligini e’tirof etgani holda, ularning miqdorini belgilashda noaniqlikka yo‘l qo‘yishib, ularni 6 ta deb belgilaydilar. Balki bunday holatni boshqa unlilar uchun harf (belgi)lar belgilashda qiyinchilik tug‘ilgani, alifboning yanada murakkablashib ketishidan xavotirlik bilan izohlash mumkindir.

1929-yilning 15–23-may kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan Respublika til-imlo konferensiyasida lotin yozuviga asoslangan 33 harfdan iborat yangi o‘zbek alifbosi qabul qilinadi. Quydagi jadvalda 1929-yildan 1934-yilgacha amalda bo‘lgan o‘zbek lotin alifbosini havola qilamiz.

Aa	Bb	Cc	Çç	Dd	Ee	Əə	Ff	Gg	Ƣƣ
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm	Nn	Ŋŋ	Oo	Өө
Pp	Qq	Rr	Ss	Şş	Tt	Uu	Vv	Xx	Yy
Zz	Ƶƶ	Ьь	'						

1929-yildan 1934-yilgacha amalda bo‘lgan o‘zbek lotin alifbosi

Bugungi lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ishlatiladigan “o” harfi 1929-yilda qabul qilingan lotin alifbosida yo‘q edi. “O” harfi bugungi “o”day o‘qilardi. “O” harfi esa “a” harfi bilan ifodalanar edi. Buni quyidagi rasmda aks etgan *toplam*, *alimjon* so‘zlari orqali ko‘rish mumkin.



1934-yilning yanvar oyida Toshkentda o‘zbek orfografiyasining yangi loyihasi muhokamalarini yakunlash maqsadida birinchi Respublika Qurultoyi o‘tkaziladi, unda alifbodan 3 ta harf (ə, y, Ё) chiqariladi, natijada “o” – “ə”, “u” – “y”, “i” – “Ё” juftliklari o‘rnida “o”, “u” va “i” harflarining o‘zini qo‘llash qoidashtiriladi ([O‘zbek yozuvi islohoti – Vikipediya](#)). Ya’ni amaliyotda o, u, i harflarining ikkixilliligi tugatiladi. Shuningdek, imlo fonetik prinsiplarga asoslangan bo‘lib, so‘z qanday aytilsa, shunday yozilishi nazarda tutilgan. Quyidagi jadvalda 1934-yildan 1940-yilgacha amalda bo‘lgan o‘zbek lotin alifbosini havola qilamiz.

A a	B b	C c	Ç ç	D d	E e	Ə ə	F f	G g	Q q
H h	I i	J j	K k	L l	M m	N n	Ŋ ŋ	O o	P p
Q q	R r	S s	Ş ş	T t	U u	V v	X x	Z z	Ž ž
'									

1934-yildan 1940-yilgacha amalda bo‘lgan o‘zbek lotin alifbosi

Bu davr imlo masalalaridagi muhim yangiliklardan biri Ashurali Zohiriyning bosh harflarni amaliyotga kiritishi va ularning ishlatilish o‘rinlarini qat’iy belgilab berishi bo‘ldi. Lotin grafikasi asosidagi o‘zbek alifbosi tartibga solinib, bu alifbo 1939-yilda yana tuzatildi va “O‘zbek tili grammatikasi” darsligida berildi. Afsuski, lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosi ham jadidlarga qo‘shilib qatag‘on qilindi. Hatto bu yozuvda bitilgan asarlar o‘tda kuydirildi.

Sho‘ro hukumati turkiy xalqlarning barchasini lotin yozuviga o‘tishiga qarshilik qilmadi. Ammo nima uchun keyinchalik o‘zi qo‘llab-quvvatlagan lotin alifbosi siyosatini batamon ta’qiqladi? Bundan ko‘zlangan maqsad nima edi?

Bizningcha, sovet hukumati endigina qad rostlayotgan, hali kuchga to‘lmagan edi, shuning uchun boshqa xalqlarni o‘z tomoniga og‘dirish maqsadida ko‘p masalalarda ularga erkinliklar bergan edi; ikkinchidan, bu xalqlarning ming yillik tarixi, madaniyati, adabiyoti, san’ati, qolaversa, e’tiqodi mazkur yozuv bilan bog‘liq edi. Yangi yozuvga o‘tishni rag‘batlantirish orqali ularning tarixi, diniy e’tiqodidan uzoqlashtirishni maqsad qilgan.

Bu fikrlarning haqiqat ekanini anglab yetish uchun ko‘p vaqt o‘tmadi. Yozuv birligi orqali o‘zaro yaqinlikka intilgan turkiy xalqlar katta kuch sifatida sho‘rolarni cho‘chitib qo‘ygan edi. 30-yillardan boshlangan qatag‘on natijasida eng sara ziyolilarning jismonan yo‘q qilinishi yo qamoqqa tashlanishi, bir kun ichida lotin yozuvi bekor qilinib, shakl jihatdan bir-biridan yiroq bo‘lgan kirill alifbosiga majburan o‘tkazilishi fikrimiz dalilidir.

Arab yozuvidan lotin alifbosiga o'tgandan atigi o'n yil o'tib, 1940-yil 8-mayda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining III sessiyasida kirill alifbosiga asoslangan alifboga o'tish to'g'risida qonun qabul qilindi. Ko'pchilik tarixchilarning fikricha, bu qaror sovet hukumatining panturkizm ta'siriga qarshi kurashi fonida qabul qilingan.

1940-yildan kirillchaga asoslangan o'zbek alifbosiga majburan o'tkazilganimiz ko'pchilikka bugun ma'lum. Lotin alifbosi asosidagi o'zbek alifbosiga uzil-kesil chek qo'yish maqsadi ham sho'rolar yuritgan siyosatning talabiga ko'ra amalga oshirilgan edi.

Ko'pchilik filolog, tarixchi va faylasuf olimlarning fikricha, 1929-yilda qabul qilingan lotin-o'zbek alifbosidan kirill asosidagi alifboga o'tishning aslida o'zbek xalq uchun zarurati bo'lmagan. Alifboning o'zgartirilishi o'zbek xalqining yozuvini tuzatish uchun emas, balki hukmron tuzum manfaatidan kelib chiqib amalga oshirilgan. Bu jarayon to'la majburiyat ostida kechgan. Barcha sohalarida rus tilining to'la amaliyoti uchun ishlar olib borildi. Shu maqsadda rus tilini milliy maktablarda o'qitishni yengillashtirish, umuman rus tili ruhini o'zbek xalqi yozuviga, tiliga singdirish nazarda tutildi. Bu ishlar, avvalo, alifbo tuzishdan boshlandi. Kirillcha o'zbek alifboda o'zbek tilining tovush-talaffuz xususiyatlari hisobga olinmadi, balki u rasmiy mafkura talablariga moslashtirildi. Rus alifbosiga xos harflar va belgilar deyarli aynan ko'chirildi.

Alifbo o'zgargach, imlo qoidalarini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ildi. 1940-yillarda yangi kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari ishlab chiqildi va nashr etildi. Bu davrda rus tilining ta'siri kuchaygani bois, o'zbek imlosida ruscha so'zlarni yozish masalasi dolzarb bo'ldi. Ayrim so'zlarning yozilishida fonetik, morfologik, shakliy yozuv turlari qo'llanila boshladi.

1940-yil 8-mayda "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifbodan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga ko'chirish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1940-yil 4-iyulda esa "Birlashgan o'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" tasdiqlandi. Shunday qilib, 33 harf va 2 belgidan iborat o'zbek kirill alifbosi amal qila boshladi. Kirill alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosining o'zbek tili tovush tizimiga mos bo'lmaganligini ushbu alifbo qabul qilingach (1940), o'zbek tilining imlo qoidalari oradan 16 yil o'tgandan so'ng, ya'ni 1956-yildagina tasdiqlanganidan ham bilish mumkin. Chunki nomukammal, tilning milliy xususiyati asoslariga qurilmagan alifbo imlo qoidalarining tez va to'g'ri ishlab chiqilishiga to'sqinlik qildi.

Xullas, XX asrning birinchi yarmida mamlakatimizda 1928, 1940-yillarda alifbo almashtirildi, alifbo va imlo islohoti esa 1921, 1922, 1923, 1934-yillarda amalga oshirildi. Ta'limning lotinchadan kirill alifbosiga o'zgarishi tez sodir bo'ldi. Kirill alifbosining ruscha varianti asosida yaratilgan yangi alifbo ta'lim tizimi, ish yuritish, adabiyot va ommaviy axborot vositalariga jadal sur'atlarda joriy etildi.

Keyinchalik kirill yozuvi har bir turk respublikasining yozuv xususiyatlariga moslashtirildi. Vaqt o'tishi bilan lotin alifbosi unutila boshladi, yangi avlod uchun bu tarixiy adabiyotlarni o'qishga, til, adabiyot, savdo-iqtisodiy kabi sohalarda milliy manbalardan bilim olishga to'siq bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Azimov I. (2024). *XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligining rivojlanish yo'nalishlari*.

Botu. Tanlangan asarlar. (2004). Sharq.

Yo'ldoshev M., To'xtaboyeva M. (2024). Botuning alifbo va imlo haqidagi qarashlari / *International scientific and practical conference "Science, education and innovation: problems, solutions and prospects"*.

Жамолхонов Х., Сапаев К. (2007). *Имло муаммолари*.

Жамолхонов Х., Умаров А. (2019). *Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. I китоб*. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.

Иброҳимов С. (1970). *Ўзбек миллий ёзувининг ривожланиши*. "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали.

Саидов Ё. (2001). *Фитрат бадиий асарлари лексикаси*.

Тоғаев Т. (2006). *Ашурали Зоҳирий ва унинг тилишунослик мероси*.

1921-yil yanvar ayida bo'lg'an birinchi o'lka qurultayining chiqargg'an qararlari. (1922). *Turkistan jumhuriyatining nashriyati*.